

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

**XORAZMSHOHLAR DAVLATINING YUKSALISHIDA HARBIY
SAN'ATNING TUTGAN O'RNI**

**MUYIDDINOV BEKALI BAHODIR O'G'LI
OSIYO XALQARO UNIVERSITETI, "IJTIMOIY
FANLAR VA TEXNIKA FAKULTETI TARIX VA
FILOLOGIYA KAFEDRASI O'QITUVCHISI**

**TESHAYEVA SHAHZODA RAHIM QIZI
OSIYO XALQARO UNIVERSITETI "IJTIMOIY FANLAR VA TEXNIKA
FAKULTETI TARIX TA'LIM YO'NALISHI BIRINCHI BOSQICH
TALABASI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazmshohlar davlatining harbiy san'ati qanday tashkil etilgani, qo'shinnning umumiy tuzilishi va rivojlanishi, yuksalishi harbiy markazlarining vujudga kelishi va unda Xorazm tarkibiga kiruvchi shaharlarning yuksak va beqiyos o'rni borligi, ayniqsa, Buxoro shahri kabi markazlarning bo'lisi va qo'shinnning asosiy qurollari nimalardan iborat ekanligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xorazmshoh, Buxoro, harbiy, qo'shin, shaxsiy gvardiya, Takash, Alouddin Muhammad, devon al-ard, qo'rg'on, qal'a, shturm narvonlar, shamshir, nayza, o'q-yoy, cho'qmor.

XIII asr boshida Xorazm juda keng maydonni egallagan buyuk davlatga aylangan edi. Uning shimoli g'arbiy va g'arbiy chegarasi Orol va Kaspiy dengiz sohillaridan janubi g'arbda Iroqqa qadar borar edi. Janubi sharqiy hududlari G'azna viloyatidan, shimoli sharqiy chegarasi esa Yettisuv va Dashti Qipchoqdan o'tar edi. Sharqdagi bu ulkan davlatning poytaxti Urganch shahri edi. Hukmdor Muhammad Xorazmshoh esa "Iskandari soniy" deb ulug'langan. X asrgacha Xorazmshohlar davlatining harbiy tayanchi bo'lib kelgan Xorazm og'ir qurollangan otliq qo'shini endilikda o'z ahamiyatini yo'qotgan edi. Agarda XI asrda Somoniylar va Saljuqiylar sultanati kabi Xorazm qo'shinida bir qancha muddat "g'ulomlar" gvardiyasi (qullar gvardiyasi) katta rol o'ynagan bo'lsa, XII-XIII asrlarga kelib xorazmshohlarning asosiy harbiy kuchini

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

yollanma va ittifoqchi turkiy harbiy qismlar-asosan xorazmshohlar saroyi bilan quda-andachilik munosabatlari o'rnatgan qabila boshliqlari va ular mansub bo'lган qang'li va turkman qabilalari tashkil etadi. Butun XII asr mobaynida Xorazmshohlar mana shu qabila aristokratiyasidan doimiy suratda o'zlariga xotin olganlar. Shunisi e'tiborga loyiqliki, Xorazm hukmdori qadimgi xorazmiy unvoni bo'lган "xorazmshoh" va arabcha- "sulton" deb atalsa, xorazmshohning birinchi xotini Turkiy unvon "xotun" nomi bilan mashhur bo'lган. Saljuqiylardan mustaqil ajralib chiqish uchun kurashning boshlanishidan tortib to davlatning tanazzul topishiga qadar xorazmshohlar muntazam qo'shinga ega bo'lганlar va uni to'ldirish, quroq-aslaha bilan ta'minlash ularning asosiy tashvishi bo'lib kelgan.

Davlat barpo etilayotgan davrda xorazmshohlar to'plagan qo'shin jangari turkiy qavmlardan tashkil topgan. Harbiy bo'linmalar va qismlar qabilaviy belgiga ko'ra shakllangan. Hatto davlat ravnaq topgan paytda ham, qachonki qo'shinga boshqa qabila va xalqlarning vakillari olinadigan bo'lganda ham turkiy qabilalar asosiy va bosh zarbdor kuchni tashkil qilganlar. Manbalarning xabar berishicha, xorazmshohlar saltanatda umumiyligi majburiy harbiy ta'lif tizimini joriy etganlar. Zakariyo Al-Qazviniy davlatning poytaxti Gurganch shahri haqida bunday deb yozadi: "Bu ko'p sonli aholisi bo'lган ulkan shahar va uning barcha aholisi, hatto ko'katchilar, qassoblar, nonvoylar va bazzozlar ham jangchilardir. Sultan Muhammad ibn Takash qoraxitoylar bilan bo'lган janglardan birida qo'shini mag'lubiyatga uchragandan so'ng shaharga yashiringan. Sultan ozgina kishilar bilan ulardan qochgan. Uning jangchilari o'zligini hech kim payqab qolmasligi uchun u shaharga kechasi kirgan. Tong otganda esa u shahardan 30 ming otliq hamkorligida chiqib dushmanga qarshi tashlangan." Boshqa bir muallif Xorazmning eng mahobatli qo'rg'onlaridan bo'lган Hazorasp qal'asi haqida "uning aholisi jang-u jadal yulduzi ostida tug'ilib, nayza va shamshir sutini emganlar", deydi. Xorazmshohlarning muntaza qismlardan tashqari shaxsiy gvardiyasi (xaros) ham bo'lib, u mamluklardan tarkib topgan. Bunday gvardiyani ilk bor xorazmshoh Takash joriy qilgan. Alouddin Muhammadning bunday qismi tarkibida 10 ming kishi bo'lган. Xarosdan xorazmshoh va uning xonardoniniqo'riqlash, jazo ekspeditsiyasi sifatida, savdo karvonlarini qo'riqlash maqsadlarida foydalanilgan. Janggovar harakatlar boshlanishi bilan xorazmshohlar xalq lashkarligiga aholi safarbarligini e'lon qilganlar, lekin yurish paytida bu lashkarlar hech qanday maosh olmasdan, talonchilik hisobiga yashaganlar. Davlat qo'shin boshqaruvinining oliy organi devon al-ard bo'lib, bu

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

devonga sohib devon al-ard rahbarlik qilgan. Manbalardan birida butun davlatning qo'shin boshqaruvining bosh organi devonparzdor jumla-i mamolik deb nomlangan.

Xorazmshohlarning muntazam qismlardan tashqari shaxsiy gvardiyasi (xaros) ham bo'lib, u mamluklardan tarkib topgan. Bunday gvardiyani ilk bor xorazmshoh Takash joriy qilgan. Alouddin Muhammadning bunday qismi tarkibida 10 ming kishi bo'lgan. Xarosdan xorazmshoh va uning xonadonini qo'riqlash, jazo

ekspeditsiyasi sifatida, savdo karvonlarini qo'riqlash maqsadlarida foydalanilgan.

Janggovar harakatlar boshlanishi bilan xorazmshohlar xalq lashkarligiga aholi safarbarligini e'lon qilganlar, lekin yurish paytida bu lashkarlar hech qanday maosh olmasdan, talonchilik hisobiga yashaganlar. Davlat qo'shin boshqaruvining oliy organi devon al-ard bo'lib, bu devonga sohib devon al-ard rahbarlik qilgan. Manbalardan birida butun davlatning qo'shin boshqaruvining bosh organi devon parzdor jumla-i mamolik deb nomlangan. Eng yirik viloyatlarda, shuningdek mahalliy qo'shin boshqaruvi organlari ham mavjud bo'lgan. Oddiy qurol-yarog'lar-shamshir, nayza, o'q-yoy, cho'qmor va kalta nayzalardan boshqa xorazmshohlar qo'shinini katapulta (manjaniq), qamal mashinalar (dabbobat), "toshbaqalar", ya'ni harakatchan minoralar, taranlar va shturm narvonlari (salolim) bo'lgan. Xorazmshohlar qo'rg'on va qal'alar qurish va ularni mustahkamlashga katta e'tibor bergenlar. Ishtaxr, Ashkanavon va Ilol qal'alari eng mustahkam qal'alardan bo'lgan. Qal'adagi qo'shinga mustahfizlar qo'mondonlik qilganlar. Xorazmshohlar davlatida mirshablik va jazolash vazifalarini shihnalar o'z harbiy qismlari bilan amalga oshirganlar. Jand shimoliy askariy, harbiy faoliyatları uchun eng muhim bazadir. Samarqand va Buxoro ham bazalar orasidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.I.To'rayev, F.F.Axrорov, M.M.Rahmatov. O'zbekiston davlat muassasalari tarixi. – B.: "Durdon", 2019
2. Бобоев.Х. Хидиров.З. Шодиев.Ж. Ахмедова.М. Ўзбек давлатчилиги тарихи. II китоб. - Т.: 2009
3. ИБН АЛ-АСИР. Ал-камил фи-т-та'рих. (ПОЛНЫЙ СВОД ИСТОРИИ). Т.: Цюрих, 2005

**FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

4. Ҳасанов.Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: “Давлат илмий нашриёти”, 2018.
5. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. SCHOLAR, 1(28), 341–345.
6. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. TADQIQOTLAR, 25(2), 212–215.
7. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58.
8. Muyiddinov Bekali. (2024). BARTOLDNING “СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ” ASARINING YARALISH TARIXI. 25(2), 699–702.
9. Muyiddinov Bekali. (2024). SHAYBONIYLAR DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA HARBIY ISLOHOTLARNING DAVLAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI. International Journal Of History And Political Sciences, 3(11), 646–648.
10. Muyiddinov Bekali. (2024). Military Art of Turkish Khaganate in the Early Middle Ages. European Journal of Innovation in Nonformal Education, 4(16), 223–227 b.
11. Muyiddinov Bekali. (2024). THE ROLE OF TURKON KHOTUN IN THE LIFE OF THE KHWAREZMSHAHID STATE. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(5), 463-469.
12. Muyiddinov Bekali. (2024). The coronation and campaigns of Alexander The Great. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 31(2), 400-412.
13. Muyiddinov Bekali. (2024). Avesto”da huquqshunoslikka doir masalalarning yoritilishi. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 30(2), 222